



O'ZBEKISTONDAGI AN'ANAVIY VA BADIY TO'QIMACHILIKNING SHAKLLANISHI

Xoliqova Mahliyo Alisher qizi

Tayanch doktorant,

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

rassomlik va dizayn instituti,

Tel:+998900099369, xmahliyo@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbekistondagi gazlamalarning kelib chiqish tarixi, shoyi, nimshoyi, adras, ularning to'quv jarayonidagi naqsh yaratilish usuli, abri gazlamalari va u haqida ma'lumot. O'zbekiston hududida tekstil ishlab chiqaruvchi fabrika, zavodlarning kirib kelishi va mato ishlab chiqarishi, rang tayyorlab matolarni bo'yash, batik san'ati.*

Kalit so'zlar: *Abr gazlamasi, shoyi, nimshoyi, baxmal, batik, funt.*

FORMATION OF TRADITIONAL AND ARTISTIC TEXTILES IN UZBEKISTAN

Xoliqova Mahliyo Alisher daughter

Formation of traditional and artistic culture in Uzbekistan Base doktorant,

National institute of painting and design named

after Kamoliddin Behzod,

Tel:+998900099369, xmahliyo@gmail.com

Abstract: *The history of the origin of cloth in Uzbekistan, silk, nimshoyi, adras, the method of creating a pattern in their weaving process, Abri cloth and information about it. On the territory of Uzbekistan there is a textile factory, the penetration of factories and the production of fabrics, the painting of fabrics with color preparation, batik art.*

Keywords: *Abr cloth, silk, nimshoyi, velvet, batik, pound.*

O'rta Osiyo shoyi gazmollari bilan mashhur bo'lgan, ma'lumki XIV asrda Samarqandda ishlangan to'q qizil duxoba ko'p joylarga eksport qilinganligi to'grisida "Boburnoma"da keltirilgan. Tarixchilarning ilk ma'lumotlariga ko'ra O'rta Osiyoda asosan sidirg'a gazmollar ishlangan. Miniaturalarda tasvirlangan gazlamalarning ko'plari shunday bo'lgan.

Shoyi gazlamalarni ishlash cheklangan, sababi XIX asrning oxirigacha shoyi liboslarni faqat asilzodalar kiyishi mumkin bo'lgan. Bejiz emaski, shoyi – "kanaus", hozirda ham "shoxi" (shohlar uchun), "adras" – "podshoxi" (podshoxlar uchun) deyiladi. Oddiy xalq shoyi kiyim kiyishi man etilgan. Faqat XIX asrning 90-yillaridan boy shaharliklar shoyi gazlamadan bashang kiyim kiyishadigan bo'ldi. Ilgari faqat kelin va kuyov kiyimlari to'y marosimida shoyidan bo'lishi mumkin edi.



XVIII asr va XIX asrning boshida gazlamalarning badiiy bezatilishi xilma-xil bo'lgan. O'zbekistonda chiqarilgan turli gazlamalar o'z uslubi va naqshiga ega edi. Ayrim naqshlar va ranglar faqat shoyi, boshqalari esa nimshoyi. Uchinchilari – ip gazlamalardan qilinardi. Shoyi va nimshoyi gazlamalar boy va xilma-xil bezatilgan. Ayniqsa nimshoyilar (tanda ipi – ipak, arqoq ipi – paxta) aslzodalar orasida yuqori baxolanardi va shoyilarga nisbatan keng tarqalgan. O'zbekiston to'quv jarayonida naqsh yaratishda ikki usul qo'llangan va hozirgacha ishlatilmoqda. Ular ikki tur hunarmandchilikka oid gazlamaning naqshini yaratadi: yo'l –yo'l va abr gazlamalardir.

“Abr” atamasi fors tilida bulut deb tarjima qilinadi. Naqsh nomi sifatida XVI asr adabiy ma'lumotlarda uchraydi. Birinchi afsonaga ko'ra abr naqshlari xovuz suvida yuguruvchi bulutlarni taqlidi, ikkinchisiga ko'ra xovuz suvida to'kilgan yog'ni yoyilgan dog'larning taqlidi bo'lgan. Ehtimol bu tasvirlar ilk bor kamalakni aks ettirgan qadimiy kashta “Abri – bahor” kabi bo'lgan. Abr usuli murakkab va sermehnat bo'lgani bois faqat shoyi va nimshoyi gazlamalar ishlashda qo'llanilgan.³¹

O'zbekistonda To'qimachilik sanoati uzoq tarixga ega. O'rta yerlarda mahalliy hunarmandlar tayyorlagan atlas, beqasam, baxmal, banoras, zandanachi, olacha kabi mahsulotlar uzoq mamlakatlarda mashhur bo'lgan, Buyuk ipak yo'li orqali Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqarilgan. Lekin mayda tarqoq hunarmandchilikni birlashtirib sanoat asosini yaratish va gazlamalar ishlab chiqarish esa faqat XX-asrning 20-yillaridan boshlandi.

1926-yilda Farg'ona to'qimachilik fabrikasining 1navbati ishga tushirildi, 1932-yilga kelib uning 2 va 3navbatlari ham qurildi. 1930-yilda Samarqand shoyi to'qish fabrikasi ishlay boshladi. 1932-yildan Toshkent to'qimachilik fabrikasini qurish boshlandi.

To'qimachilik sanoati mashinalari, dastgohlari bazasini yaratishda 40-yillarda qurilgan "Toshtekstilmash" zavodining hissasi katta bo'ldi. Urushgacha bo'lgan yillarda Qo'qon ip yigiruv paypoq to'quv fabrikasi, Farg'ona, Toshkent trikotaj buyumlari fabrikalari, Marg'ilon shoyi, Samarqand yangi trikotaj fabrikasi barpo etildi. Urush yillarida (1941— 45) Toshkentga trikotaj, Leningraddan ip, Marg'ilonga shoyi to'qish, Farg'onaga yigiruv to'quv fabrikasi ko'chirib keltirildi. Natijada O'zbekistonda To'qimachilik sanoati o'sish sur'atlari tezlashdi. 50-yillarda yangi korxonalarini qurish, ishlab turgan korxonalarini kengaytirish davom etdi. 60-yillar o'rtalarida Namangan kastyumbop va shtapel gazlamalar fabrikasi qurila boshlandi. Toshkentda "Malika" trikotaj ishlab chiqarish fabrikasi, Buxoro to'qimachilik kombinati (1973— 76), Namangan noto'qima materiallar ishlab chiqarish birlashmasi (1974), Pop noto'qima materiallar kombinati (1977), Andijon ip gazlama fabrikasining 1navbati (1981), Xiva gilam kombinati qurib ishga tushirildi. 80-yillarda yirik to'qimachilik korxonalarida bir qancha filiallar ochildi. Shuningdek, Paxtaobod, Chuvama, Qo'rg'ontepa, Marqamatda

³¹ Uz.arxiv/O'zbekiston badiiy gazlamalari.



hamda G'ijduvon va Vobkentda fabrikalar qurilib ishga tushirildi. Filiallarda ham ishlab chiqarish texnologik siklining tugal bo'lishiga erishildi.³²



90-yillarda O'zbekiston To'qimachilik sanoati yangi sifat o'zgarishlari bosqichiga o'tdi. Respublikaning xorijiy mamlakatlar bn hamkorlik aloqalari tobora kengayib, chet ellik sheriklar bn barpo etilgan qo'shma korxonalar soni ko'payib bormoqda.

90-yillarda O'zbekiston amaliy-bezak san'atida badiiy gazlamaning batik, degan yangi turi paydo bo'ldi. Bu so'z yavancha bo'lib, issiq mum bilan surat solish degan ma'noni bildiradi. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida paydo bo'lgan ushbu qadimiy naqsh solish usuli hamda u bilan bezatilgan mato "batik" deb ataladi. Batik Hindiston, Indoneziya, tropik Afrika xalqlari orasida azaldan mashhurdir. Yevropada batik bezakli mato sifatida XX asr boshlarida qo'llanila boshlangan. 1990-yillarga kelib san'atning bu turi O'zbekistonda ham keng tarqaldi.

O'zbekistonda batikning paydo bo'lishi 1992 yilda tuzilgan "Batik" guruhi bilan bog'liqdir. Uning tarkibiga Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti hamda respublika Rassomlik kollejining bitiruvchilari L.Sayfi, I.Lisenko, O.Kolesnikova, N.Kuchina, M.Strelnikova, R.Mirahmedovalar kiradilar. Rassomlar batik texnologiyasini egallashlari bilan birga, ijodiy xarakterdagi vazifalarni hal etishga kirishdilar. Guruh rassomlari ro'mol, durracha, bo'yinbog', qiyiq ro'mollarga gul solishdan boshlab, asta-sekin turli liboslarga gul tushirishga, batik usulida muayyan mavzuga bag'ishlangan rasmlar yaratishga, charmga naqshlar bosishga o'tdilar.³³

Jahon san'at tarixi rassomlar uchun batik ilhom manbaiga aylandi. Ularning asarlarida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda, yapon, hind, qadimgi Misr, Afrika san'ati mavzulari uchraydi. Masalan, L.Sayfiy ijodida M.Vrubelning iblisga o'xshab ketadigan "Xotin daraxt" (1998), rassom A.Rublev ikonalarining kompozitsion tamoyillariga asoslangan "Osmon podachisi"(1999) asarlari o'ziga xos ma'noga egaligi bilan ajralib turadi. Shunisi diqqatga sazovorki, rassomlar san'atning boshqa turlariga

³² uz.wikipedia.org/wiki/E.Olimboyev, "To'qimachilik sanoati" O'zME.Birinchi jild.Toshkent, 2000-yil.

³³ И. Богословская. Возрожденное искусство Батика. Санат.- Т. 1999г. №3.-С.42-43.



xos bo'lgan badiiy ifodalash tamoyillaridan keng foydalangan holda, ularni aynan batik san'atiga xos qonun-qoidalarga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladilar.

"Batik" guruhi va L. Sayfiyning liboslar to'plamida an'anaviy Sharq madaniyatining an'analari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu liboslarga tushirilgan naqshlarda, ularda qo'llanilayotgan anorgul, bodomgul shakllarida, an'anaviy o'zbek va turkman gilamdo'zligiga xos handasaviy naqshlarda, zardo'zlik san'atiga oid tasvirlarda o'z ifodasini topmoqda. Ma'lumki, an'anaviy Sharq liboslarida asosan atrofdagi muhit va butun olam tabiiy hodisalari o'z aksini topishi hamda ko'tarinki ruhdagi afsonaviy, she'riy tasavvurlar bilan mujassamlashtirilishi, ularga o'ziga xos ko'rinish, rang va ramziy ifodalar baxsh etilishiga olib keladi. Ehtimol, zamonaviy rassomlarning ijodiy izlanishlari goho ongli, goho ichki his bilan yuqoridagi talqinga yaqinlashsa-da, ayni chog'da, dunyoni zamonaviy his etishga ko'proq yo'naltirilgan. Guruh tomonidan issiq batik usulida ishlangan "Bahor" mahobatli pannolar turkumi ("Sheraton - Toshkent" mehmonxonasi, 1998 — 1999yillar) ijodkorlar o'rta asr miniatyura san'ati an'alarini ijobiy o'zlashtirganliklarining yorqin namunasidir.

Qadimgi bo'yoqlar asosan, anor po'sti, isparak, ro'yan kabi o'simliklardan tayyorlangan. Bugungi kunda bo'yoq sanoatida ulardan keng qo'llaniladi. Qirmizi (koshinel) va nil (indigo) bo'yoqlari esa chetdan keltirilgan. Bu bo'yoqlardan xilma-xil boshqa ranglar hosil qilingan.

Krauzening ma'lumotlariga ko'ra uch funt (Yevropa mamlakatlarida qadimgi o'lchov birligi, 1 funt – 409,5 grammga teng.) ipakni qora rangga bo'yash uchun 2 funt anor po'stlog'i va yarim funt temir qirindisi solinib, muntazam ravishda aralashtirgan holda kun davomida qaynatiladi. Ishqorda oldindan qaynatib olingan ipak tayyor aralashmaga solib qo'yiladi, shu tarzda mato bo'yaladi. Malla rang olish uchun 6 funt isparak o'ti, yarim funt ro'yan va 3 unsiya (Rossiyada qadimda qo'llanilgan og'irlik o'lchov birligi, 29,86 grammga teng) achchiqtosh olinadi. Shular hammasi uzoq vaqt davomida muntazam qaynatiladi. Suzib olingan suyuqlikka ipak solinadi. Gilos rang bo'yoq olish uchun 5 funt ipakka bir funt buzg'un, bir funt qizil bo'g'im va yarim funt koshinel olinib, qozonda qaynatiladi va suzib olinadi. Och yashil rangga bo'yash uchun ipakni isparakda sariq rangga bo'yab olinib, so'ng kuchsiz indigo qorishmasiga solinadi va h.k.

Sintetik bo'yoqlardan farqli o'laroq, o'simlik bo'yoqlari ancha turg'un bo'lib, ularda keskinlik kuzatilmaydi. O'simlik bo'yoqlarining yana bir afzalligi shundaki, ulardan foydalanilgan holda tayyorlangan matolar urinib ketmaydi, rangi aynimaydi. Bu esa mato bezaklarining uzoq vaqt o'zgarmay saqlanishiga imkon beradi.

Respublikada badiiy estetik tarbiyaning turli shakllarini to'g'ri tashkil qilish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va takomillashtirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Materiallarga badiiy ishlov berish insonga ruhiy jihatdan zavq va kuch beradi, fantaziyani rivojlantiradi, badiiy didni shakllantiradi. Ularning ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalardagi mehnat faoliyatlari uchun mustahkam zamin yaratadi. Badiiy did sohibi, ijodiy qobiliyatga ega shaxs ancha sifatli va samarali ishlashi hayotda



isbotlangan. Inson doim go`zallikkka intiladi, bizning azaldan beri tayyorlanib kelinayotgan matolarimiz va ulardagi rang, naqsh, insondagi nafislik va nazokatning yorqin namunasi desak adashmaymiz. Bizning xalq tarixdan inson qo`li gul ekani, oddiy matoni nafis va ko`rkam kerak bo`lsa hashamatli qilibberaolishini ko`rsatgan. Bugungi kunda esa bizda yaratilgan matolarning chet el muzeylarida saqlanayotgani isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uz.arxiv/O`zbekiston badiiy gazlamalari.
2. uz.wikipedia.org/wiki/E.Olimboyev, "To`qimachilik sanoati"
3. O`zME.Birinchi jild.Toshkent, 2000-yil.
4. И. Богословская. Возрожденное искусство Батика. Санат.- Т. 1999г. №3.-С.42-43.
5. O`zbek xalqi an`anaviy kiyimlarining shakllanishi tarixidan // https://arxiv.uz/files/55718_kvantgipotezasi-va-plank..
6. Z.M.Bobur "Boburnoma". - T.: Mehnat, 1990.